

The threat of religious extremism and terrorism

Khushnud YAKUBOV¹, Khojimurod RAKHMONJONOV²

Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

ARTICLE INFO

Article history:

Received January 2021

Received in revised form

30 January 2022

Accepted 20 February 2022

Available online

15 March 2022

Keywords:

religion,
extremism,
terrorism,
threats,
currents,
ideological immunity.

ABSTRACT

The relevance of the article “Religious Extremism and the Threat of Terrorism”, the essence of Islam’s peace-loving, tolerant nature, the negative aspects of religious bigotry, extremism and terrorism are explained on the basis of comprehensive information and evidence. Legal understanding of religious extremism and terrorism in the citizens of the Republic of Uzbekistan, the emergence and current state of extremism and terrorism in our country, the actions of religious extremism and terrorist organizations and movements in the country, the resulting losses and damage, raising legal awareness and culture, religious extremism and work on the formation of ideological immunity against terrorism.

2181-1415/© 2022 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss2/S-pp246-251>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Diniy ekstremizm va terrorizm tahdidi

ANNOTATSIYA

Kalit soʻzlar:

diniy,
ekstremizm,
terrorizm,
tahdid,
oqimlar,
mafkuraviy immunitet.

Ushbu “Diniy ekstremizm va terrorizm tahdidi” maqola mavzusining dolzarbligi, islom dinining tinchlikparvar, bagʻrikenglik mohiyati, diniy mutaassiblik, ekstremizm hamda terrorizmning salbiy jihatlari keng qamrovli maʼlumotlar va dalillar asosida bayon qilingan. Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolarida diniy ekstremizm va terrorizmning huquqiy tushunchasi, ekstremizm va terrorizmning mamlakatimizda vujudga kelishi va bugungi kundagi holati, diniy ekstremizm va terrorizm tashkilotlar va oqimlarining mamlakatimizdagi harakatlari, uning oqibatida kelib chiqqan talafotlar va zararlar, fuqarolarni huquqiy ong va madaniyatni oshirish, diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan ishlar yoritib berilgan.

¹ Lieutenant Colonel, Senior Lecturer of Operational Intelligence, Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan. Tashkent, Uzbekistan. E-mail: yakubov0511@mail.ru.

² Cadet of the second course of the 203rd group of the Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan. Tashkent, Uzbekistan. E-mail: xojimurod0502@mail.ru.

Угроза религиозного экстремизма и терроризма

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

религия,
экстремизм,
терроризм,
угрозы,
течения,
идеологический
иммунитет.

Статья является актуальной, так как в ней описывается и анализируется сущность миролюбивого, толерантного характера ислама, негативные стороны религиозного фанатизма, экстремизма и терроризма объясняются на основе исчерпывающей информации и доказательств. Дается характеристика правовому пониманию религиозного экстремизма и терроризма у граждан Республики Узбекистан, а также возникновение и современное состояние экстремизма и терроризма в нашей стране, действия религиозно-экстремистских и террористических организаций и движений в стране, причиненные убытки и ущерб, повышение правосознания и культуры, религиозного экстремизма и работы по формированию идеологического иммунитета против терроризма.

“Bugun dinimizni asrash kerak, mo‘min-musulmonlarni himoya qilish kerak. Lekin dinimizni, birinchi galda, o‘zini “chin musulmon” deb da’vo qilayotgan ana shu yovuz kuchlardan, har qadamda “jihod” deb og‘iz ko‘pirtirib, din nomidan buzg‘unchilik qilayotgan qon-xo‘r va qotillardan asrash kerak”.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimov

XXI asr – internet, ajoyib kashfiyotlar asri, inson koinot sirlari qo‘yniga kirib borayotgan asr, axborot va g‘oyat ulkan texnikaviy imkoniyatlar asri bo‘lmoqda. Shu davrga kelib insonlarning, ayniqsa yoshlarning hayotiga, kelajagiga xavf soluvchi ekstremizm, terrorizm va shunga o‘xshash qatlam paydo bo‘ldi. Yer yuzida bu ofatga qarshi keskin kurash olib borilmoqda, jumladan, har bir ta‘lim muassasalarida ta‘lim olayotgan voyaga yetmaganlarni bu xavfdan ogoh etish, ushbu oqimlarning tuzog‘iga tushib qolishdan saqlash maqsadida soha mutaxassislari bilan hamkorlikda targ‘ibot-tashviqot ishlari sifatini oshirmog‘imiz zarur. Manbalarda keltirilishicha, diniy ekstremizm va terrorizm kabi hodisalarning ildizlari uzoq tarixga borib taqalishidan dalolat beradi. Shunday bo‘lsa-da, ular hech qachon ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyot uchun bugungidek tahdid solmaganini qayd etish lozim. Zero, hozirda diniy ekstremizm va terrorizm global xarakterga ega bo‘lib, dunyoning barcha mamlakatlari hamda mintaqalariga birdek xavf solmoqda. Shunday ekan, uning oldini olish, unga qarshi kurashish insoniyatning istiqboliga daxldor masalaga aylanganini e‘tirof etish joiz. Mazkur yo‘nalishda kishilik jamiyati oldida kompleks vazifalar dolzarb bo‘lib turibdi. Islom shiorlaridan tanlab foydalanadigan, dinning asl mohiyatini buzib talqin qiladigan ekstremistik tuzilmalar xuddi yuqoridagi kabi go‘yoki keng xalq ommasi bilan uzviy birlik mavjudligini ko‘rsatish, aslida esa, jamiyatda tartibsizlik va parokandalikni yuzaga keltirish uchun mablag‘ yig‘ish, asosiy tahdid manbai sifatida odamlar ong-u shurini egallash, jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish orqali hokimiyatga erishishdek ehtiyojlarini qondirish maqsadini ko‘zlaydi. Hozirgi dunyoda eng ashaddiy muammolardan biri

diniy ekstremizm va terrorizm bo'lib kelmoqda. Bu muammo qachonlardan beri jahon muammosi bo'lib kelmoqda. Bu muammoning paydo bo'lishi uzoq o'tmishga borib taqaladi, desak to'g'ri bo'ladi. Globallashuv bo'layotgan bu davrda bu muammoning oldini olish uchun turli ishlar qilinmoqda.



Biz hozirgi kunda **“Diniy ekstremizm”** deganda, **“ba’zi diniy tashkilotlar yoki ayrim dindorlar tomonidan jamiyatda qabul qilingan qonun-qoidalarga mos kelmaydigan faoliyat olib borish, ularga zid bo’lgan g’oyalarni, aqlbovar qilmaydigan darajada mudhish chora-tadbirlarni targ’ib qilishdir”** deb tushunamiz. **Terrorizm** esa lotincha **“Terror”** so’zidan olingan bo’lib **“qo’rqitish, tajovuz va dahshat”** ma’nolarini anglatuvchi mazkur hodisa g’ayriinsoniy xatti-harakatlarni ifoda etadi. Terrorizm diniy, siyosiy, milliy g’oyalar bilan niqoblangan vahshiylikdir. Terrorizm, ko’pincha, odamlarga ta’sir o’tkazish uchun qilinadigan tahdid yoki kuch ishatishdir. Dunyoviy nuqtayi nazardan qaralganda, din – kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyotining ma’lum bosqichida paydo bo’lgan ijtimoiy ong shakllaridan biri. Bu dunyoqarash jamiyatning ma’lum bir tarixiy davr va sharoitlaridagi talablari, ehtiyojlari asosida shakllandi. Har bir davlat dini xalq ma’naviyatining uzviy qismi sifatida tan oladi. Shundan kelib chiqib, uning rivoji uchun shart-sharoitlar yaratishga harakat qiladi. Din, shu jumladan, islom dini ham ming yillar davomida barqaror mavjud kelganligining o’zidayoq u inson tabiatida chuqur ildiz otganligidan, uning o’ziga xos bo’lgan bir qancha vazifalarni ado etishidan dalolat beradi. Eng avvalo, jamiyat, davlat, guruh, shaxs ma’naviy hayotining muayyan sohasi bo’lgan din umuminsoniy axloq me’yorlarini o’ziga singdirib olgan, ularni jonlantirgan, hamma uchun majburiy xulq-atvor qoidalariga aylantirgan. Insonning odamlar bilan bahamjihat yashashiga ko’maklashgan. Din odamlarda ishonch hissini mustahkamlagan. Ularni poklab, yuksaltirgan. Hayot sinovlari, muammo va kamchiliklarni yengib o’tishlarida kuch bag’ishlagan. Umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlarni saqlab qolish hamda avloddan avlodga yetkazishga yordam berib kelgan. Shuning uchun ham din insonning ishonchli hamrohi, odamzod hayotining bir qismi bo’lib kelmoqda. Qadimdan ma’lumki, islom dini O’zbekisto hududlariga 643–644-yillardan boshlab yoyilgan bo’lsa ham, bu hududda ne-ne islom dini bilan bog’liq bir nechta asarlar yaratilgandir. Islom ilmlari bizning hududimizga VIII asrda Xuroson (hozirgi Turkmanistonning shimoli-sharqiy qismlaridagi davlat VIII–XIV asrlarda) orqali Movarounnahr (Arablar egallab olgan yerlar-arabcha “daryoning narigi tarafi” deb o’sha paytlarda Amudaryo va Sirdaryo daryolari orasidagi hududlarga aytilgan)ga kirib kelgan bo’lsa, IX asrdan boshlab mazkur ilmlar mintaqaning o’zida rivojlandi. Bu davrga kelib, avval islom olamida tan olingan olti sahih hadislar to’plami (assihoh as-sita), so’ngra ularning qatorida uch to’plam qo’shib to’qqiz kitob (alkutub at-tis’a) shakllandi. Ulardan uchtasi movarounnahrlik ulamolar – Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Dorimiylar

tomonidan jamlandi. Islom dini o'sha vaqtdan buyon bizning hududimizdagi milliy din sifatida tan olinib kelinmoqda. Mustaqillik sharofati bilan diniy qadriyatlarga erkinlik berilishi islomning jamiyatdagi o'z o'rnini egallashiga imkon yaratdi. Lekin, shu bilan birga, yashirin holatda rivoj topgan va din niqobidagi turli mafkuralarning ta'sirida shakllangan qarashlar yuzaga yuzaga chiqishi ham qulay sharoitni vujudga keltirdi. XX arning ikkinchi yarmida xalqaro maydonda o'zini balandroq ovoza qilgan, barchaga o'zining salbiy ta'siri bilan tanilgan, shubhasiz, diniy ekstremizm va undan oziqlanib turgan, diniy shiorlar bilan burkanib olgan terrorizmdir. Ma'lumotlarga qaraganda, bugungi dunyoda 500 ga yaqin terrorchi tashkilotlar ish olib bormoqda. 1968–1980-yillar davomida ular 6700 ga yaqin terrorchilik amaliyotlarini sodir etganlar. Natijada, 3668 kishi halok bo'lib, 7474 kishi turli jarohatlar olgan. Ekstremizm va terrorizm odamlarning ertangi kuniga bo'lgan ishonchiga putur yetkazibgina qolmay, balki xalqaro maydondagi muammolarni, jumladan, turli e'tiqod vakillari bo'lgan xalqlar orasidagi o'zaro ishonchga soya solib, jahon taraqqiyotining xalqaro iqtisodiy va madaniy hamkorlikning rivojiga to'siq bo'lmoqda. Ekspertlarning xabar berishicha, dunyoda terroristik tashkilotlarning yuzdan ortig'i eng zamonaviy qurollar bilan qurollangan va bu tashkilotlar bir-birlari bilan axborot almashadilar, qo'poruvchilik ishlarini amlaga oshirayotgan paytda o'zaro sherik bo'ladilar, zarur bo'lgan vaqtda bir-birlariga moliyaviy va boshqa shakldagi yordam beradilar. Bunday tashkilotlarning eng yiriklari qatorida **“Al-Qoida”, “Al-Jihod al-islomiy”, “Hizbut-tahrir”, “Tolibon”** va boshqa terroristik tashkilotlarni misol qilib aytishimiz mumkin. Hozirda mamlakatimizda shunga o'xshagan **“Al-Qoida”, “Al-Jihod al-islomiy”, “Hizbut-tahrir”, “Tolibon”, “Akromiylar”** diniy ekstremistik va terroristik oqim, tashkilotlar yashirincha o'z faoliyatini yuritmoqda. Islomiy ekstremizm hozirgi davrda va u bilan bog'liq terrorizm dunyoning 10 dan ortiq mamlakatiga alohida tahdid solmoqda. Bu davlatlar qatoriga Sudan, Misr, Suriya, Hindiston, Saudiya Arabistoni, Jazoir, Liviya, Senegal, Pokiston, Malayziya, Indoneziya, Falastin, Iroq va boshqa davlatlarda terrorizm eng ashaddiy ildiz otgan davlatlar sirasiga kiradi. Hozirgi kunda eng dahshatli qo'poruvchilik ishlari Suriya, Iroq va Afg'oniston davlatlari hududlarida sodir bo'lmoqda. Bizning yurtimiz O'zbekistonda ham 1999-yil 16-fevral (Toshkent), 2004-yilning mart-aprel va iyul, 2005-yilning may (Andijonda) oylarida sodir etilgan voqealar keng ko'lamli xalqaro terrorchilik tuzilmasining navbatdagi vahshiyliklaridan biri ekaniga hech qanday shubha qolmaydi. Bizning davlatimiz diniy ekstremizm va terrorizm bilan duch kelgan va uning asoratlaridan aziyat chekkan birinchi davlat emas. U bugun jahonning ko'plab mamlakatlari xavfsizligiga tahdid solayotgan illatdir. Diniy ekstremizm kelib chiqishining birinchi va asosiysi sababi bu-mutaassib fikr va qarashlarning paydo bo'lishidir. Mutaassiblik bu-biron e'tiqodga yoki dunyoqarashga o'ta berilganlik, boshqa har qanday qarashlarga toqat qila olmaslikdir. Ongi zaharlangan va mutaassibga aylangan kishilar o'zlari qilayotgan ishlarni to'g'ri deb hisoblagan holda, har qanday nomaqbul ishlardan ham bosh tortmaydilar. Vaholanki, ularni bu yo'lga boshlagan “rahnamolarning” asl maqsadi mohiyatan g'ayriinsoniy xarakterga ega. Ularning asosiy niyati butun Osiyo hududida qadimgi Arab xalifaligini barpo etishdir. Lekin ularning asosiy niyati shu bilangina cheklanib qolmasdan, dinni niqob qilib olib hokimiyatni qo'lga olishdan, bu yo'lda “inson” deb atalmish buyuk jonzotni o'ldirishdan ham tab tortmayapti. Ular hozirgi kunda, ayni daqiqada ham o'z yovuz, jirkanch ishlarni turli davlatlarda amalga oshirmoqdalar. Dunyo tinchligiga xavf solib turgan diniy ekstremizmning tahdidi quyidagilardan iborat:

noqonuniy qurol-yarog' savdosi va narkobiznes hisobidan katta mablag'lar to'plana-yotgan, musulmon dunyosida shakllangan o'ziga xoslik tufayli yuzaga kelgan vaziyatda islomni shior qilib olgan ekstremizm va terrorizm xavfsizlikka asosiy tahdid sifatida birinchi o'ringa chiqdi. Bu vahshiylikning kelib chiqish sabablarini quyidagilar orqali ko'rishimiz mumkin. Bu muammoning asosiy paydo bo'lish omillarni aniqlab oldik, xo'sh, nega diniy ekstremizm va terrorizm hamon yechimi muammo bo'lib ko'rinayotgan masala bo'lib qolyapti, bunchalik kuchni qayerdan olyapti, degan savol tug'ilishi tabiiy. Bu vahshiylikning oziqlantiruvchi omillardan biri bu qashshoq aholi toifasi bo'lsa, ikkinchi asosiy omillardan biri-bilimsizlik, uquvsizlik va, albatta, ongida mafkuraviy bo'shliq shakllangan ijtimoiy qatlamlarning bu yo'lga kirib ketishlaridir. Aynan shu bois ekstremistlar o'zlarining g'oyalariga muqaddas dinimizni niqob qilib olib, odamlar ongiga dinning mavjud bo'lmagan qonun-qoidalari bilan ta'sir etib, ularni atroflariga to'planmoqdalar va bu yo'lda hattoki jonlarni ham ayamayaptilar. Aslida, din ular uchun e'tiqod qilish uchun emas, balki, o'zlarining manfur, g'arazli, jirkanchli niyatlari bo'lmish siyosiy hokimiyatni kuch bilan egallashdagi qurol yoki niqob vazifasini bajarib kelmoqda. Shunday ekan, barchamiz ularga qarshi kurashda milliy ma'naviyatimiz, o'zligimiz, e'tiqodimiz ramzi bo'lgan-dinimizdan foydalanishlariga yo'l qo'ymasligimiz darkor. Buning uchun, avvalo, barchamiz musulmonlar sifatida haqiqiy dindan xabardor bo'lishimiz darkor. Darhaqiqat, chin e'tiqodli, bilimli va mustaqil fikrlash kabi ko'rinishlar biz yoshlarda, jamiyatimizning har bir a'zosida mujassam qilsak, biz hech qachon bunday guruhlariga qo'shilib ketmaymiz.

Shu o'rinda birinchi Prezidentimiz I.A. Karimovning quyidagi so'zlarini tilga olsak: "Barchamizga ayon bo'lishi kerakki, qayerdagi beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o'zibo'larchikkka tashlab qo'yilsa, o'sha yerda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha-qayerda hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha yerda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi". Bu so'zlarni ichida katta ma'no yotadi, biz-yoshlar har doim hushyor, sergak, kuchli iroda va bilimimiz bilan bu jaholatni oldini olishga va Ona-Vatanimiz tinchligiga xavf solayotgan bu tahdidlarga qarshi kurashmog'imiz kerak. Xulosa qilib aytganda, bu jaholatga qarshi faqat jaholat bilan emas, balki ezgulik tarafdori bo'lgan mangu, yorug', nurli-kuchli bilim va sog'lom tafakkurimiz bilan kurashishimiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2011. – B. 40.
2. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida (yangi tahriri). O'zbekiston Respublikasining Qonuni. – Toshkent: Adolat, 2019.
3. Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining qonuni. – Toshkent: Adolat, 2000.
4. Ekstremizmga qarshi kurash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining qonuni. – Toshkent: Adolat, 2018.
5. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartiari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O'zbekiston, 1997. – B. 328.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 176.
7. Islom niqobi ostidagi ekstremistik va terrorchi uyushmalar (Ma'lumotlar to'plami) / K. Shermuxamedov, J. Karimov. – Toshkent: "Movarounnahr" nashriyoti, 2014. – B. 160.

8. Diniy bag'rikenglik va mutaassiblik (yuz savolga-yuz javob). Mas'ul muharrir O. Yusupov. – Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013. – B. 156.

9. Diniy mutaassiblik: mohiyat, maqsadlar va oldini olish yollari. A. Hasanov, O. Yusupov, K. Shermuhamedov, U. G'afurov, J. Karimov. – Toshkent: Movarounnahr, 2013. – B. 160.

10. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. / Mualliflar jamoasi. – Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013. – B. 246.

11. <http://www.iiv.uz> – O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi.

12. <http://www.akadvd.uz> – O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi.

13. <http://www.iiu.uz> – O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi veb-sayti;

14. <http://www.islamcenteruz> – O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi Ilmiy tadqiqotlar va innovatsion loyihalar markazi veb-sayti.

15. <http://www.religions.uz> – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita veb-sayti.

16. <http://www.muslim.uz> – O'zbekiston musulmonlari idorasi veb-sayti.

17. <http://www.buxoriy.uz> – Toshkent islom instituti veb-sayti.

18. <http://www.hidoyat.uz> – "Movarounnahr" nashriyoti veb-sayti.

19. <http://www.ziynet.uz> – Axborot ta'lim tarmog'i.